

## **MULOQOTDA NOVELBAL VOSITALARNING QO'LLANILISHI**

### **(ERKIN A'ZAM ASARLARI MISOLIDA)**

*M.Yusupova,*

*SamDU talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada muloqot jarayonida qo'llanadigan ayrim noverbal vositalar pragmatik tahlil qilingan. Misollar E.A'zam qissalaridan olingan.

**Kalit so'zlar:** paralingvistik vositalar, verbal, noverbal, imo-ishoralar, kinetik, ishoraviy, mimik, fonatsion.

Ma'lumki, nutq insonning aloqa vositasi hisoblanadi. Insonlar bir-birlariga nima xohlayotganliklarini bildirish uchun aynan nutqdan foydalanadilar. Insoniyat paydo bo'lgan paytlardayoq nutq almashinuv jarayoni mavjud edi. Ibtidoiy insonlarning nutqi shakllangunga qadar ham turli nutq ko'rinishlaridan foydalanganlar. Ular imo-ishoralar orqali muloqot qilishganlar.

So'zlovchining ichki kechinmalari ifodasida imo-ishoralar nutqqa o'zgacha ma'no yuklaydi. Masalan, *labini burdi, ko'zini qisdi, rangi oqarib ketdi, ko'ksiga qo'lini qo'ydi* va hakazo. Bularning barchasi paralingvistik vositalar hisoblanadi.

Noverbal muloqot nutq jarayonida ma'lum bir qo'shimcha ma'no yuklashda verbal muloqotga yordamchi vazifasini bajaradi. Noverbal birliklarning har bir xalq, millatda o'z o'rni va ko'rinishlari mavjud hamda har bir noverbal harakatda ma'lum bir xalq madaniyati aks etadi. O'zbek xalqlarida, ayniqsa, bu jarayon rasm-rusm va urf-odatlarida ko'zga tashlanadi.

Paralingvistik vositalarning bir necha turi mavjud. Bular: bosh bilan bog'liq noverbal harakatlar: *boshini changgalamoq, boshini orqaga tashlamoq, bosh irg'amoq, boshini sarak-sarak qilmoq, boshini egmoq* va h.k; qosh bilan bog'liq harakatlar: *qoshini chimirmoq, qoshini ko'tarmoq, qoshini qoqmoq;* ko'z bilan bog'liq harakatlar: *ko'zini qismoq, ko'zini olib qochmoq, tikilmoq;* lab bilan bog'liq harakatlar: *labini tishlamoq, labini burmoq, labini cho'chchaytirmoq;* qo'l bilan bog'liq harakatlar: *qo'lini silkitmoq, qo'lini ko'ksiga qo'ymoq;* yelka bilan bog'liq:

*yelkasini qismoq, yelkasini qoqib qo'ymoq; oyoq bilan: oyog'ini aymashtirmoq, oyog'ini quchoqlamoq* va h.k.

Noverbal vositalarni quyidagi tasnif asosida o'rganish mumkin:

1. Kinetik noverbal vositalar.
2. Fonatsion noverbal vositalar.

Kinetik noverbal vositalarga kishilar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida ma'lum bir tana a'zosining ishtiroki asosida yuzaga chiqadigan noverbal vositalarga aytildi. Masalan, *qo'lini paxsa qilmoq, qoshini chimirmoq, yelkasini qismoq*. Kinetik noverbal vositalarning o'zi ham ikki turga bo'linadi: ishoraviy va mimik. Ishoraviy noverbal vositalarga qo'l va barmoqlar, yelka, gavdaning harakatlanayotgan qismlari orqali yuzaga chiqadigan harakatlarga aytildi. Bu harakatlarga misol tariqasida bir nechta davlatlarning salomlashish harakatlarini ko'rib chiqamiz. Masalan, Tibet davlatida til chiqarib, birovga ko'rsatish ishorasi unga bo'lgan chuqr hurmatini bildirar ekan. Bizda esa bu harakat boshqa ma'no bildiradi, ya'ni, asosan, yosh bolalar tomonidan, yoki yoru do'stlar tomonida hazil qilinganda qo'llanadi. Kongoda esa ko'rishayotganlar, avvalo, qo'llarini birlariga cho'zib, keyin ularga puflashar ekan. Puflash ko'pchilik mamlakatlarda haqorat yoki norozilikni bildirsa, Keniya davlati aholisi orasida ro'parasidagi odamga nisbatan hurmatni bildirish uchun unga qarab puflanishi kerak ekan. Yanoqdan o'pib qo'yish harakati ham bir nechta davlatda salomlashishni bildirar ekan. Masalan, Fransiyada bir-biriga uncha yaqin bo'lмаган kishilar ham uchrashganlarida bir-birining yanoqlaridan o'pib qo'yishar ekan. Ba'zi mamlakatlarda o'pish soni ham ahamiyatli ekan. Masalan, Italiya, Ispaniya va Belgiyada odamni ikki yanoqlaridan o'pish odatiy hol hisoblanarkan. Ukraina, Rossiya, O'rta Osiyo mamlakatlarida esa uch marta o'pilar ekan. Bizda o'pishib ko'rishish ayollarga xoh harakatdir. Erkak ayol bilan yoki erkak bilan erkak o'pishib ko'rishishi juda xunuk va bachkana harakat sanaladi. O'zbek millatining o'ziga xos alohida salomlashish usuli mavjud. Ya'ni, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, boshini eggan holda, "Assalomu alaykum", deyish eng chiroyli salomlashish

hisoblanadi. Noverbal harakatlarning nutq jarayonida qo‘llanishini badiiy asarlarda ko‘rib o‘tamiz.

Masalan, kaftlarni bir-biriga ishqalash yordamida insonlar biror narsadan ijobiy natija kutayotganligini bildirar ekan. Masalan, mana bu parchada: *Uy egasi qaytib kelgach, Ziraksiz xonim: Qani endi, qo ‘shni, ko ‘ramizmi anavingizni? – deb qoldi. Chinnibekka jon kirdi. Kaftlarini bir-biriga ishqab yigirmanchi asr mo‘jizalariga yaqinlashdi.* (“Bayramdan boshqa kunlar” 25-bet).

Bunda Chinnibek “anavi”ga umid bog‘lab, xursand bo‘lib ketish ma’nosida qo‘llanmoqda.

*Sevikli tepakalga qaray-qaray shirin xotiralar og‘ushida o‘tirgan Mafkuraxonimning o‘zi bu lutfga “raxmat” degandek mammuniyat bilan bosh irg‘adi-yu, mohiyatni kechroq anglab, minbardagi notiqqa yuzlanib bosh chayqadi: xato, siyosiy kaltabinlik! So ‘ngra shosha-pisha Oqsoqol shoirdan bu kaltabinning nomini so‘rab olib, “Maddoh aka, hov Maddoh aka!” deb chaqirdi va ko‘rsatgich barmog‘ini tepaga nuqib ishora qildi; bu harakat ham “birinchi” ma’nosini, ham “eng yuqori” degan mazmunni ifodalardi.* (“Shoirning to‘yi” 12-bet).

Keltirilgan parchada bosh irg‘ash harakati bilan “rahmat” ma’nosini bildiryapti va ikkinchi gapda inkor ma’nosida, ya’ni “xato” degandek bosh chayqamoqda. *Bosh chayqash, bosh irg‘ash* harakatlari ham bir nechta ma’nolarda qo‘llanishi mumkin. Masalan, boshni gorizontal holatda chayqash biror vaziyatni keskin inkor qilish ma’nosida, e’tiroz, tan berish, ikkilanish, afsuslanish, achinish ma’nolarda kelishi mumkin:

*Mastona ko ‘zlarini arang suzib u Bakirga loqaydgina bosh silkib qo ‘ydi, xolos.* (“Bayramdan boshqa kunlar” 142-bet).

Boshni vertikal holatda qimirlatish esa rozilik, maqullash, tasdiq, kelishish, mammunlik, ko‘rishish ma’nolarida kelishish mumkin. Mana bu parchada salomlashish ma’nosida qo‘llangan:

*Qiltiriq, rangi zamhil, ammo pardoz-andozni joyiga qo ‘ygan bu honim Bakir tomonga bilinar-bilinmas bosh silkib, Bargidaga yuzlandiyu allanimalardan nolib bidillamoqqa tushib ketdi.* (“Bayramdan boshqa kunlar” 127-bet).

Mana bu parchada esa boshni orqaga tashlash harakati bilan o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, kibrlanish, maqtanish ma’nolarida qo‘llangan: *O‘pishuv marosimidan so‘ng Safura bir lahza xona o‘rtasida o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoqchidek boshini orqaga tashlab, ko‘kragidan do‘ng yasagancha vigor bilan qotib turdi.* (“*Bayramdan boshqa kunlar*” 21-bet).

Yuqoridagi parchada keltirilgan barmoqlar harakati bu yerda ikki ma’noda kelmoqda: ko‘rsatkich barmog‘ini yuqoriga nuqib “yo‘q”, “xato” degan ma’noda va o‘zini “bitta va hammadan yuqori” pog‘onada turganligini ta’kidlash ma’nosida. Ko‘rsatkich barmoqni tepaga ko‘tarib, tik qilib ko‘rsatishning bir nechta ma’nolari bor: bitta, tanho ma’nosida, biror narsani qat’iy ta’kidlash, barmoqni xuddi shu holatda burunga tekkizish esa “jim”, “hech kim bilmasin” ma’nolarida, biror bir sirli gaplarda qo‘llaniladi.

Mimik novelbal vositalarga kishilarning yuz, ko‘z, qosh, til, tish, burun harakatlari orqali adresatga ma’lum axborot yetkazishi tushuniladi.

“*Sizni deb-ku, mana aravakashlik qilib yuribmiz!*” *Ona bu gapga miq etolmaydi, labini tishlab qoladi.* “*Ehiyot bo‘lib yurgin deyman-da, jon bolam, ko‘zingga qarab, - deya pichirlaydi bir ozdan so‘ng.*” (“*Bayramdan boshqa kunlar*” 8-bet).

Keltirilgan parchada labini tishlab qoladi paralingvistik vositasi “afsuslandi” ma’nosida kelmoqda. Labini tishlab qolmoq birikmasi bir necha ma’nolarda kelishi mumkin. Masalan, mana bu yerda esa “hayron bo‘lmoq” “o‘ylanmoq” ma’nosida kelyapti: *ZAGSda yana bir nima ma’lum bo‘ldi: Bargida undan ikki yosh katta ekan. Buni ko‘rib Zahro kennoysi negadir labini tishlab qo‘ydi* (“*Bayramdan boshqa kunlar*” 43-bet).

Mana bu parchada esa “xo‘rlanish”, “uyalish” ma’nosida kelmoqda:

-*Bakirxon... qo‘zim... dilbandim... To‘yga borolmadim. Bular qo‘ymadi...*

*Mashkura kennoyi labini tishlab, asta bosh chayqab qo‘ydi: ana shunaqa, aynib qolganlar, bunga chidash bermoq osonmi?* (“*Bayramdan boshqa kunlar*” 57-bet).

Imo-ishoralar ham ba’zan ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. “Labini tishlamoq” vositasi ham yuqoridagilardan tashqari bir qancha ma’nolarda qo‘llanilishi

mumkin. Masalan, aynan bizda qattiq jahl chiqqan paytda ham lab tishlash harakati kuzatilishi mumkin. Yoki aksincha, qattiq xursand bo‘lganda.

Qosh chimirish mimikasini ham bir nechta ma’noda uchratish mumkin: *-Kim bu? – deb so ‘radi Mafkuraxonim chimirilib, tashabbusni qo ‘lga olish-olmasligini bilmay.* (“Shoirning to‘yi” 20-bet).

Parchada ajablanish ma’nosida kelmoqda. Bundan tashqari asabiylashish, jahl chiqqanda, hayron qolganda, fikrni jamlash, norozilik, achinish, tan berish va hokazo.

Fonatsion noverbal vositalarga nomidan ham bilinib turibdiki, “fon”, “ovoz” ma’nosini beradi. Ya’ni nutq jarayonida kommunikator nutqining baland yoki past, qattiq yoki muloyim tarzda jaranglashi tushuniladi.

Noverbal vositalarning turlari juda ham ko‘p. Ularsiz nutq bo‘lishi mumkin emas. Insonlar bir-birlari bilan gaplashishayotganlarida, ma’ruza o‘qishayotganlarida, axborot berayotganlarida va almashinayotganlarida, ayniqsa badiiy asarlarda ham keng qo‘llaniladi. Badiiy asarlardagi noverbal vositalar asarni o‘qiyotganimizda o‘sha vaziyatni ko‘z oldimizdan o‘tkazib, asar ichiga kirib, personajlar ichki dunyosini his qilishimizga yordam beradi. Har bir millatning o‘ziga xos paralingvistik bositalari bo‘lganidek, o‘zbeklarda ham boshqalarga o‘xshamagan turlari mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo‘rayeva B., Toirova G., Zaripova A. Sotsiolingvistika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro, 2019.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. Andijon – 1980.
3. O‘rinboyeva D. O‘quvchilarda verbal va noverbal matnlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish. Samarqand – 2021.
4. A’zamov E. Bayramdan boshqa kunlar. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1988.
5. A’zamov E. Shoirning to‘yi. Toshkent. 1994.
6. [www.odam.uz](http://www.odam.uz).

